

KOMIL SINDAROV TERGOVCHI



XXI ASR O'ZBEK
DETEKTIVI

O'GIRLANGAN BOLALIK

KOMIL SINDAROV

XXI ASR O'ZBEK
DETEKTIVI

O'G'IRLANGAN BOLALIK

Detektiv qissa

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.512.133-3

KBK 84(50)7

S 58

Sindarov, Komil

S 58 O'g'irlangan bolalik [Matn]: detektiv qissa / Komil Sindarov. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 296 b.

ISBN 978-9943-7145-5-7

Prokuratura bo'lim boshlig'i bo'lib ishlayotgan, o'z kasbining fidoyisi, bir oilaning mehribon otasi sirli ravishda yo'qoladi. Asar ushbu voqealar bilan boshlanadi. Uning kelgusi taqdiri qanday kechadi? Sirli ravishda g'oyib bo'lgan mas'ul xodimni yo'qotishda gumon qilingan shaxslarni aniqlash, tergov qilish jarayoni, oilasi, qarindosh-urug'larining chekkan jafolari, tahlikali o'tkazgan kunlari asarda o'ziga xos yo'nalishda hikoya qilinadi.

Aziz kitobxon! Asarda tasvirlangan qahramonlarning ruhiy holatlari, alamli kechinmalari, quvonch-u shodliklariga sherik bo'lasiz, degan umiddamiz.

UO'K 821.512.133-3

KBK 84(50)7

© K. Sindarov, 2021

© «O'zbekiston» NMIU, 2021

ISBN 978-9943-7145-5-7

SO'ZBOSHI O'RNIDA

Muhtaram o'quvchi!

Sizlar bilan yana g'oyibona uchrashib turganimdan mamnunman. Navbatdagi – oltinchi detektiv asarimni sizning hukmingizga havola etmoqdaman.

Asar butun dunyo, xususan, mamlakatimiz uchun og'ir sinovli damda – koronavirus pandemiyasi munosabati bilan e'lon qilingan karantin kunlari yozildi. Bu bilan mamlakatimizda ko'rinmas baloga qarshi kurashda muhim o'rin tutayotgan «Uyda qoling», «Kitob mutolaa qiling» kabi tashabbuslarga o'z hissamizni qo'shishni istadik.

Mazkur asar ham muqaddam chop etilgan «Qimmatga tushgan xato yoki qasoskor qalb isyoni» (2013), «Temuriylar kutubxonasining siri» (2015), «Kechikkan qasos» (2017), «Amirlikning oltin taxti izidan» (2018), «Tungi qotillik» (2019) detektiv asarlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Bosh qahramonlar – prokuratura tergovchilari Sanjarbek va Faxriddin. Bu gal Sanjarbek hamkasblari bilan bir qishloqda sodir etilgan davomli qotillikni tergov qilishga qo'l uradi. Asarda Faxriddin Karimovichning boshiga og'ir kulfat tushganligi bois, ustozining maslahatidan ham bebahra qolgan tergovchining mashaqqatli mehnati, qat'iyati, topqir va o'z kasbiga fidoyiligi, adolat yo'lida tolmasligi hikoya qilinadi.

Shuni e'tirof etish kerakki, kitob real voqelikka asoslangan. Faqat biz o'sha voqealarga badiiy bo'yoq va badiiy-estetik ruh berib, sayqallashga harakat qildik. Prokuratura tergovchilari, ichki ishlar xodimlarining zahmatli mehnatlaridan aholini xabardor qilishning huquqiy madaniyatini

yuksaltirish bilan birga mamlakatimizda 2010-yillarda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy vaziyatni ham boricha ko'rsatishga, jamiyatda to'planib qolgan muammolarni qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatishga harakat qildik. Zero, xalqimizda «Yomonni ko'rmay, yaxshining qadriga yetib bo'lmaydi», degan naql bor. O'zining yuksak salohiyati bilan dunyo ahlini lol qoldirishda davom etayotgan, fidoyi, xalqparvar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Yangi O'zbekistonni eng rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo'shish sari ildam odimlab borar ekanmiz, yurtimizning har bir ongli fuqarosi, ayniqsa, yoshlar, bugungi omon-omon zamonlar qadriga ko'proq yetishi uchun o'sha mash'um kunlar haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lishlari lozim deb hisobladik. Zero, Abdulla Qodiriy aytganidek, «Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir». Yaqin o'tmishni o'rganishni ham xosiyatli bildik.

Asarni yozish va nashrga tayyorlashda o'zlarining be-minnat maslahatlari, fikr-mulohazalarini ayamagan prokuratura faxriysi, kriminalistika va jinoyatlarni tergov qilish uslubi fani bo'yicha ko'plab qo'llanma va risolalar muallifi Mamasali Isomiddinovga, uzoq yillar ichki ishlar organlarida tergovchi sifatida faoliyat yuritgan, yuridik fanlari nomzodi Bexzod Mo'minovga, muhlislarimiz Bojxona instituti talabasi Gulida Olimjonovaga, O'zNNTMA kengashi bosh mutaxassisi Zuhra Abdullayevaga, jurnalistlar Xusan Nishonov va Arslon Eshmurodovlarga cheksiz minnatdorlik bildirishni joiz topdik.

Asar yuzasidan qimmatli taklif va mushohadalaringizni elektron manzilib (sindarov60@gmail.com) hamda feysbukdagi sahifamga (komilsindarov) yo'llashingizni so'rayman.

*Ehtirom ila yuridik fanlar doktori, O'zbekiston yozuvchilar
uyushmasi a'zosi Komil Sindarov*

Sanjarbek yashin urganday seskanib, uygʻonib ketdi. U yoq-bu yoqqa alanglab, oʻz uyida ekanligiga amin boʻlgach, «Xayriyat-e, tush ekan!» dedi pichirlab. Yonida beozorgina mast uyquda yotgan yosdiqdoshini uygʻotib yubormaslik uchun oyoq uchida yurib, narigi xonaga oʻtdi. Paypaslanib chiroqni yoqdi. Soatga qaradi: toʻrtidan besh daqiqa oʻtibdi. Oromkursiga oʻtirib, koʻrgan tushini xayolida jonlantirishga urindi: tovba, shunaqayam bemaʼni tush boʻladimi? Faxriddin Karimovich bilan qandaydir baland qoyada turganmish. Bu qanaqa choʻqqi, u yerda nima qilib yuribdi — nomaʼlum. Xuddi alpinistlarga oʻxshab bir-biriga arqon bilan ulanganmish. Bir payt ustozining oyogʻi toyib, pastlikka qulabdi... Yaxshiyamki, arqonga osilib qolibdi. Sanjarbek jonholatda ikki-uch quloch pastlikda osilib turgan ustozini tortib olishga harakat qilayotganmish. «Ustoz, mahkamroq tuting, sizni tortib chiqaraman», — deb baqiribdi u. Faxriddin amallab oʻzini oʻnglab bolib, arqonga yopishibdi. U nuqul «Sanjarbek, iltimos, qoʻyib yuborma, iltimos, meni chiqarib ol!!! Yashashni xohlayman!!!» dermish. Sanjarbek oyogʻini xarsangga tirab, kuchi boricha tirshanglab, ustozini qutqarishga harakat qilayotganmish... Ammo qancha chiranmasin — ustozini tepaga tortib olishning uddasidan chiqolmayotganmish... Har ikkalasining qoʻllari tolib, barmoqlari tilinib ketgan boʻlsa-da, arqonni qoʻyib yubormayotganmish... Yukning ogʻirligidan beli uzilib ketayozgan, ustoziga qoʻshilib oʻzi ham jarlikka qulab tushishiga bir bahya qolayotgan boʻlsa-da, Sanjarbek jon-jahdi bilan chiranishda davom etayotganmish... Faxriddin qutulib qolishdan umidini uzib, «Arqonni qoʻyib yubor, boʻlmasa seniyam tortib ketaman! Arqonni yechib tashla!» —

deb baqiribdi. Sanjarbek ko'zlaridan yosh oqizib, «Yo'q, yo'q! Qo'yib yubormayman, sizni chiqarib olaman!» deya chiranishda davom etayotganmish. «Iltimos, arqonni qo'yib yubor, baribir tortib ololmaysan!» – qichqiribdi ustoz. Sanjar uning gapiga parvo qilmay terlab-pishib, jon talvasasida, arqonni beliga o'ragancha mahkam tortib turganmish... Shu payt Faxriddin qo'njidan pichoq chiqarib, arqonni kesib yuboribdi va tubsiz jarlikka qulabdi. «Faxriddin aka!!! Nima qilib qo'ydingiz!!! Faxriddin aka!!!»

Bu qandoq tush bo'ldi? Ustoz jar yoqasida turibdimikan? Shu tobda Sanjarbekning xayoliga Bahrom Sadirovichning «senga betgachoparlikni o'rgatgan Faxriddin Karimovich janoblari ishonayapsanmi?.. Ishonganing kim bo'lsayam, yaqinda dumi tugiladi!» degan gaplari keldi.

Ustoz tinchmikan? Omonmikan? Qo'ng'iroqlashganlariga ham uch-to'rt kun bo'ldi. O'shanda so'raganda «hammasi yaxshi» degandilar. Ustoz, asosan, uning ishlari bilan qiziqqandi, takror-takror ehtiyot bo'lishni tayinlagandi. Ammo o'zida biror muammo borligini bildirmagandi-ku. Ovozi ohangidan kayfiyati oldingiday emasligini darrov payqagandi. Har doimgi hazilomuz gap-so'zlar bo'lmagandi. O'shanda bunga unchalik ahamiyat bermagandi...

Yo'q, yo'q! Ko'ngil dushman deyдилar. Faxriddin Karimovich halol, to'g'riso'z, ishdan boshqa narsani bilmaydigan, odamlarga ezgulik ulashishdan charchamaydigan, fidoyi inson bo'lsa, kim uni yomonotliq qilishi, peshonasiga tang'a yopishtirishi mumkin... Boshqa tomondan bu quturgan itlar, zaharli ilonlarning qo'lidan har balo, har qanday qabihlik, razillik kelishini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu zamonda yaxshini yomonga, oqni qoraga, pokni nopokka chiqarishdan osoni bormikan?!

Sanjarning uyqusi qochib, kitob javonidan «Tush ta'birlari» kitobini topib, varaqlashga tushdi. «Jannat»... «janoza»... «jarlik» – tushda jarlik ko'rish yaxshilikka ta'bir

qilinmaydi, xavf-xatardan ogohlantirish, sevishganlar ayrilishi, yomon do'st, qo'rquv, tuhmat, afsuslanish, o'lim bilan tugaydigan janjal, mol-davlatini yo'qotish, xavfli yong'inga ishora...

Hafsalasi pir bo'ldi. Kitobni yopib, o'zicha pichirladi: «Tushim teskari kelgan bo'lsin-da!» U oyoq uchida yurib, joyiga cho'zilar ekan, uyg'onishi bilan ustoziga qo'ng'iroq qilishni ko'ngliga tugdi...

Sanjarbek barvaqt turib, odatiga ko'ra yarim soat jismoniy tarbiya bilan mashg'ul bo'ldi. So'ng qo'l telefonini olib, Faxriddin Karimovichning raqamini terdi. Go'shakni hech kim ko'tarmadi. Yana ikki marta raqamni qaytadan terdi. Javob bo'lmadi. «Balki yuvinayotgandir, balki telefonini ovozsiz rejimdan chiqarish yodidan chiqqandir» degan xayolga bordi va keyinroq -- ishga borgach, qo'ng'iroq qilishni o'ylab qo'ydi.

Shu vaqt ichida farzandlarini maktabga, bog'chaga kuzatgan Maftuna dasturxonni o'ziga xos nozik did bilan bezatib, to'rasini kutib turardi:

– Assalomu alaykum, adasi, xayrli tong, yaxshi dam oldingizmi?

– Rahmat, bolalar ketishdimi?

– Ketishdi, – dedi Maftuna kosadagi qaynoq sutni erining oldiga qo'yar ekan, – kecha aytish yodimdan chiqqan ekan, Muslimangizning bo'yi cho'zilib, kiyimlari torlik qilib qolgan. Sandalchasi ham sig'may qolibdi. Shunga bugun vaqtingiz bo'lsa...

– Bugun oylik berishadi, tushlikda yonimizdagi do'konga kirib chiqaman.

Maftuna «To'ng'ichingizga ham biror narsa qo'shib olarsiz, tag'in o'ksinib o'tirmasin» demoqchi bo'ldi-yu, turmush o'rtog'ining kayfiyati unchalik yaxshi emasligini fahmlab, sukut saqlashni ma'qul bildi. «O'zidan bilib biror narsa olar-da», deb o'ylab qo'ydi.

Noxush tush ta'siridan qutulolmagan Sanjarbek nari-dan beri ishtahasiz tamaddi qilib, turishga shaylandi. Bir xayol tushini xotiniga aytib, ko'nglini bo'shatib ham ol-moqchi bo'ldi. Ammo onasining «yomon tushni birovga gapirish bexosiyat bo'ladi, yaxshisi, tushni suvga aytgan ma'qul», degan o'giti yodiga tushib, fikridan qaytdi.

Sanjarbek xonasiga kirishi bilan bir necha bor ustozini-ning qo'l telefoniga qo'ng'iroq qildi. Natija bo'lmagach, xizmat telefonidan ustozining ishxonasi raqamini terdi. Go'shakni kotib yigit ko'tardi:

– Assalomu alaykum, eshitaman.

– Jasurjon, yaxshimisiz? Men Bosh prokuraturadan ter-govchi Sanjar Rahmonovman. Negadir Faxriddin Karimo-vichning telefoniga tusholmay turibman, ishdamilar?

– U kishi... yo'q edilar...

– Qayerdalar, qachon qo'ng'iroq qilsam bo'ladi?

– Bilmadim... Hech narsa deyolmayman. Kechirasiz, oldimda odamlar bor edi, – deya kotib gapni muxtasar qi-lib, go'shakni joyiga qo'ydi.

Yigitning tutruqsiz, noaniq javobi, talmovsirashi Sanjar-bekka yoqmadi. Ichiga g'ulg'ula tushdi, halovati yo'qoldi. Oyoq-qo'lini titroq bosib, joyidan turolmay qoldi. Nima qilish kerak? Bu yerda bir gap borga o'xshaydi! Nahot ko'rgan tushi rost bo'lsa! Yo'q, yo'q, vahima ko'tarishga asos yo'q! Balki majlisdadir. Balki, betob bo'lib, ishga chiqolmay qolgandir. Unda anovi kotib nega telba-teskari gapirdi? Yoki tanimadimikan? Yo'q, o'zini tanishtirdi-ku! Har safar «Sanjar aka» deya tavoze bilan gaplashardi-ku! Balki shunchaki ishdan ketgandir. Shunga bu bolaning gap-so'zi o'zgarib qolgandir...

Bir zumda Sanjarbek xayolotning ming bir ko'chasiga kirib chiqdi. Uning miyasida «vahimalar qo'shini» bir ta-raf, ularni inkor etuvchi tasavvurlar qo'shini ikkinchi taraf ayovsiz «jang-u jadal»ga kirishgandi. Sohob qanchalik ado-

latli bo'lishga, inkor etuvchi hislarga yon bosishga harakat qilmasin, «jang»da vahimalar «qo'shini» ustun kelayotganday edi...

Tergovchi soatiga bir qarab, qog'oz-qalamini olib, Bosh prokuror o'rinbosari huzuriga shoshildi. Tik turgan-cha telefon murvatini burab turgan yigit Sanjarbekni ko'rib, go'shakni joyiga qo'ydi:

– Sanjar aka, assalomu alaykum, sizga qo'ng'iroq qilib turgandim, shef so'ragandilar, kiravering.

Tergovchi kotibga minnatdorchilik bildirib, ichkariga kirdi.

– Assalomu alaykum, Tohir aka, – Sanjarbek podadan oldin chang chiqarimaslik maqsadida bosiqroq bo'lishga harakat qildi, – so'ragan ekansiz?

– Vaalaykum assalom, keling, o'tiring, – joy ko'rsatdi rahbar o'rnidan qo'zg'almasdan.

– Sanjar tergovchi emasmi? – rahbarning yuz qiyofasidan qandaydir noxushlik ro'y berganini payqadi.

– Balki o'zingiz ham eshitgandirsiz... – Tohir G'ofurovich mungli, alamli ovozda gap boshladi, – kecha tunda Faxriddin Karimovichni... qamoqqa olishdi...

– Qamoqqa... Kim qamoqqa oladi? Qanday qilib? Nega? Nimaga? Axir... – Sanjarning tili kalimaga kelmay qoldi, ustidan sovuq suv quyulganday a'zoyi badani qaltirab ketdi.

– Kim bo'lardi, anovi muttahaamlar-da! – deb yelkasiga ishora qildi Tohir G'ofurovich, – viloyat xavfsizlik xizmati korrupsiya boshqarmasida Qodir To'rayev degan bemazasi bor. Yodingizda bo'lsa, uning xurmacha qiliqlari haqida oldin ham sizga aytgandim. Naq Xudodan qaytgan, bezori! Ancha paytdan beri ta'qib qilib yurishgan ekan... Nima, Faxriddin sizga aytmaganmidi?

– Faxriddin aka bilan gaplashganimga uch-to'rt kun bo'ldi. Hech narsa demagandi-ku!